



**MAKTABCHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BO'LAJAK
TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
AHAMIYATI**

Ergasheva Ba'rno Ziyaviddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, „Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedra o'qituvchisi

Abduqayumova Marjona Olim qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, talaba

Annotatsiya. Mazkur maqola kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish xususida boradi

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bo'lajak tarbiyachilar, fan va ta'lim, bo'lajak tarbiyachining mahorati, kreativlik, kasbiy kompetentlik, kreativ kompetentlik, kompetensiya

Annotation. This article is about preparing future teachers for professional activities and improving their creative abilities based on the competence approach.

Key words: preschool education, future educators, science and education, skills of the future educator, creativity, professional competence, creative competence, competence

Аннотация: Данная статья посвящена подготовке будущих учителей профессиональной деятельности и совершенствованию их творческих способностей на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: дошкольное образование, будущие педагоги, наука об образовании, умения будущего педагога, креативность, профессиональная компетентность, творческая компетентность, компетентность.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha talim tizimiga aloxida to'xtalib o'tganlar va bir qancha vazifalar bergilab bergenlar Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022 — 2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'grisida aloxida to'xtalib o'tganlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari oldiga barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularni mакtab ta'limiga har tomonlama tayyor, zamon talabariga mos ravishda jismoniy, aqliy intellektual, ijodiy va shu kabi qobiliyatlarini rivojlanish va mustaqil Vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qiladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifa qilib qo'yilgan. Shunday ekan, zamon talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish malakasi, qisqa qilib aytganda,



CANADA



CANADA

tarbiyachilarning o‘zlarida kreativ kompetentlik rivojlangan bo‘lishi kerak. Zero, o‘zi kreativ salohiyatga ega bo‘limgan tarbiyachi yoki mutaxassis bolada ijodiy qobilyatlarni rivojlantirolmaydi. Zamonaviy sharoitda har bir shaxsning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish va rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir. Jamiyat ijtimoiy faol a’zolarga, kreativ va ijodkor shaxslarga shoshilinch ehtiyojni boshdan kechirmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi -ijtimoiy ahamiyati, yangiligi, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan inson faoliyati va mustaqil faoliyatining oliy shaklidir. Ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarining tabiatiga bo‘lgan qiziqish fan va texnikaning rivojlanishi va ularning oldida tobora murakkablashib borayotgan muammolarni hal qilishga qodir bo‘lgan tarbiyachilarni tayyorlash zarurati bilan bog‘liq holda alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisini individual kasbiy rivojlantirish, uning ma’naviy, ijodiy va kreativlik salohiyatini maksimal darajada ro‘yogga chiqarish oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tegishli tarzda modernizatsiya qilish zarurligini belgilab berdi. Uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talab -eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy yetukligi va kreativ potensialga egaligi ta’lim sifatini oshirish uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o‘z masuliyatini samarali anglashga, ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o‘rtoqlarini o‘sishiga yordam beradi.

Kreativlik so‘zi (inglizcha “create” yaratuvchanlik,jodkorlik) so‘zidan olingan bo‘lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste’dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil omili sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.

Shuningdek, tarbiyachining kreativligi, hodisalarini tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan ijodiy yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o‘z-o‘zidan shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tarbiyachilarini tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan ham o‘quv jarayoniga mazmunan va shaklan yangiliklar kiritishni, ta’lim jarayoniga kreativlikni olib kirishni taqozo etadi. Bu kabi islohotlar o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak tarbiyachilarining kreativlik kompetentligini shakllanishiga turki bo‘ladi.

Kompetentlik -kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo‘lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli

bo'lmay, uni jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish ularning kelgusida kasbiy faoliyatlarida bolalarda ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishda hamda ta'lim sifati va samaradirligini oshirishda zamin bo'ladi. Aytib o'tish joizki, tarbiyachining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, guruh ham shunday bo'la oladi. Pedagogning ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil va doimiy ravishda o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida har tomonlama nazariy bilimga ega bo'lgan bo'lajak tarbiyachilarga tahsil berib kelinmoqda. Ularda mavjud bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirish va kreativ kompetentligini rivojlantirish hamda ularni amaliyotda qo'llash ishlari samarali amalgalashirilmoxda. Kreativ va va kasbiy kompetentligi yuqori bo'lgan tarbiyachilar bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida yangidan yangi texnologiyalarni ishlab chiqadilar. Faoliyat jarayonini noodatiy va qiziqarli usulda tashkil etadilar. Bu o'z navbatida o'sib kelayotgan yosh avlodning yangidan yangi bilimlarni egallashiga va bilim salohiyati yuqori bo'lismiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saydullayeva, N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati. Maktabgachata'limjurnali, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://journal.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/3872>

2. Risbaevna, E.P. 2022. Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari Tarbiyachilarining Kasbiy Kompetentsiyalarini Rivojlantirish. International Journal on Integrated Education. 5, 6 (Jun. 2022), 468-471.

3. O'zbekiston olimlari va yoshlarning inovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari mavzusidagi konfrensiya., Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining axborotlar bilan ishslash kompetentligini oshirish. Abdullayeva Sabohat G`ayratullayevna. Toshkent-2021. Confrensiya.uz.



4. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.
5. Barno, E. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.
6. N.I. Sadullayeva Uslubiy qo'llanma. Toshkent-2022.
7. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 2(10), 118–122.
8. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. *Spanish Journal of Society and Sustainability*.—Published February, 8, 12-15.
5. Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 216-219.
6. Abarjon o'g'li, A. A. (2022). SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-MUHITGA TA'SIRI. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE* 2022, 2(14), 70-73.
7. Madaminovna, K. S., Furkatovna, G. M., & Adakhamjon, A. (2023). SIGNIFICANCE OF SOIL FERTILITY IN FERGANA REGION. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1320-1324.
8. Халматова, Ш., Усманова, Т., & Ақрамов, А. (2022). Экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. *theory and analytical aspects of recent research*, 1(5), 547-554.
9. Xalmatova, S., Gaybullayeva, M., & Akramov, A. (2022). O 'SIMLIKLAR OLAMIGA INSON FAOLIYATINING SALBIY TA'SIRI, HAMDA UNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 947-953.
10. Xalmatova, S., & Akramov, A. (2022). KIMYOVIY O 'G 'ITLAR TARKIBIDAGI TURLI MODDALAR ORQALI TUPROQLAR QATLAMINI IFLOSLASHI VA UNING OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 4-7.
11. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 195-198.